

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiy Davlatlar Tashkilotining (TDT) tashkil topish tarixi, institutsional tuzilmasi va O'zbekistonning mazkur tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni tahlil etiladi. 2009-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrdagi integratsiya bosqichlari, sammitlarda qabul qilingan asosiy hujjatlar, O'zbekiston tashqi siyosatining yangi yo'nalishi hamda a'zolikning strategik ahamiyati o'rganiladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va hujjat-tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Turkiy Davlatlar Tashkiloti, Turkiy Kengash, O'zbekiston, turkiy integratsiya, Naxchivon Kelishuvi, Shavkat Mirziyoyev, sammit, deklaratsiya, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация. В данной статье анализируются история создания Организации тюркских государств (ОТГ), её институциональная структура, а также процесс вступления Узбекистана в данную организацию. Рассматриваются этапы интеграции в период с 2009 по 2025 годы, ключевые документы, принятые на саммитах, новое направление внешней политики Узбекистана и стратегическое значение членства. Исследование основано на историко-сравнительном методе и анализе документов.

Ключевые слова: Организация тюркских государств, Тюркский совет, Узбекистан, тюркская интеграция, Нахчыванское соглашение, Шавкат Мирзиёев, саммит, декларация, региональное сотрудничество.

Annotation. This article analyzes the history of the establishment of the Organization of Turkic States (OTS), its institutional structure, and the process of Uzbekistan's accession to the organization. It examines the stages of integration from 2009 to 2025, the key documents adopted at the summits, the new direction of Uzbekistan's foreign policy, and the strategic importance of its membership. The research is based on historical-comparative and document-analysis methods.

Keywords: Organization of Turkic States, Turkic Council, Uzbekistan, Turkic integration, Nakhchivan Agreement, Shavkat Mirziyoyev, summit, declaration, regional cooperation.

Kirish. Insoniyat tarixida davlatlararo munosabatlar doimo ikki kuch — birlashtiruvchi va ajratuvchi omillar o'rtasidagi muvozanat asosida shakllanib kelgan. Imperiyalar barpo etilgan, so'ng parchalangan; ittifoqlar tuzilgan, so'ng tarqalib ketgan; xalqlar bir-biridan uzoqlashgan va yana yaqinlashgan. Bugungi beqaror va raqobatga to'la xalqaro munosabatlar tizimida turkiy davlatlar yangi xalqaro subyekt sifatida shakllanib bormoqda. Bu hodisa tasodifiy emas — uning zaminida o'nlab yillar davomida to'plangan siyosiy iroda, iqtisodiy manfaat va madaniy umumiylik yotadi.

Aynan shunday murakkab geosiyosiy sharoitda Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) sammitlari oddiy diplomatik tadbirlardan ko'ra chuqurroq ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sammitlar a'zo davlatlarning umumiy kelajakni birgalikda loyihalashtirish maydoniga aylanib bormoqda. Tashkilotning «Turkiy nigoh – 2040» konseptual dasturining qabul qilinishi mazkur irodaning rasmiy ifodasidir. Shu bilan birga, ko'p qutbli dunyoda tashkilot ham imkoniyatlarga, ham milliy manfaatlar farqidan kelib chiquvchi cheklolarga duch kelmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, TDT so'nggi yillarda Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalaridagi muhim integratsion tuzilmalardan biriga aylanib bormoqda. Tadqiqotning maqsadi — TDTning tashkil topish jarayoni, sammitlarda qabul qilingan asosiy qarorlar va

O'zbekistonning tashkilotdagi rolini ilmiy tahlil etishdir. Vazifalari sifatida tashkilotning institutsional shakllanishini o'rganish, sammitlar tarixini xronologik tartibda tahlil qilish hamda O'zbekiston a'ziligining strategik ahamiyatini aniqlash belgilangan.

«Sammit» so'zi fransuzcha «somet» so'zidan olingan bo'lib, «cho'qqi», «tepa» ma'nolarini anglatadi. Xalqaro munosabatlar tizimida sammit — davlat rahbarlarining eng yuqori darajadagi rasmiy uchrashuvi sifatida tushuniladi. Sammitda strategik qarorlar qabul qilinadi, xalqaro shartnomalar imzolaniadi va davlatlarning umumiy yo'nalishi belgilanadi.

Har qanday yangi xalqaro tuzilmani baholashning ishonchli yo'li — uni tarixiy tajriba ko'zgisida sinab ko'rishdir. Mintaqaviy integratsiyaning eng muvaffaqiyatli namunasi bo'lgan Yevropa Ittifoqining tarixi shundan dalolat beradi. 1951-yilda Parij shartnomasi asosida Yevropa Ko'mir va Po'lat Hamjamiyati (ECSC) tashkil etilgan, 1957-yilgi Rim shartnomasi orqali Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EEC) tuzilgan, va nihoyat 1993-yilgi Maastrixt shartnomasi bilan Yevropa Ittifoqi rasman ta'sis etilgan. Yevropa davlatlari tinchlik va iqtisodiy yuksalish yo'lida o'z suverenitetining bir qismini umumiy institutlarga ixtiyoriy ravishda topshirgan. TDT ham xuddi shunday umumiy til, tarix va madaniyat asosida birlashgan davlatlardan iborat. Asosiy farq shundaki, Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng chuqur integratsiyalashgan mintaqaviy tashkilotga aylangan, TDT esa ushbu yo'lning boshlang'ich bosqichida turibdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) sammitlarini ilmiy jihatdan o'rganish nisbatan yangi soha bo'lib, hozirgi adabiyotlarda bu mavzu asosan institutsional rivojlanish, iqtisodiy integratsiya va qiyosiy mintaqaviy tahlil sifatida yaratilgan. Adabiyotlarni tahlil qilganda, TDT sammitlarining 2009–2025-yillardagi evolyutsiyasi, a'zo davlatlar o'rtasida shakllangan siyosiy-diplomatik hamkorlik, transport-logistika loyihalar, savdo-investitsiya oqimlari hamda madaniy-gumanitar hamkorlik keng ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari va mintaqaviy hamkorlik tajribalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar TDT sammitlarini mintaqaviy integratsiya modellari hamda geosiyosiy strukturalar orqali tushunishga yordam beradi. Mazkur maqolada TDT sammitlarining geosiyosiy samaradorligini o'rganishda quyidagi manbalardan keng foydalanildi: A. Axunovning „Turkiy integratsiya: yangi bosqich“ kabi integratsion tahlilga ega bo'lgan monografiyalar, Sh. M. Mirziyoyevning „Yangi O'zbekiston strategiyasi“ kabi davlat rivojlanish strategiyalarini o'z ichiga olgan asosiy siyosiy matnlar, shuningdek, Naxchivon kelishuvi, Samarqand, Astana, Bishkek deklaratsiyalari hamda “Turkiy nigoh–2040“ strategiyasi kabi TDT tarixi va integratsion yo'nalishlarini belgilovchi rasmiy hujjatlar muhim tayanch sifatida qo'llanildi. Iqtisodiy va siyosiy dinamikani tushunish uchun Guliyev V.ning „The Reinvigoration of the Organization of Turkic State“, Kirishci K. va Toygur I.ning „Turkey's New Presidential System and Changing West“, Kazantsev A., Medvedeva S. Safranchuk I.ning “Between Russia and China: Central Asia in Greater Eurasia” kabi xalqaro jurnallardan olingan adabiyotlar, shuningdek, “Yangi O'zbekiston” gazetasidagi TDT doirasidagi amaliy hamkorlik va “Turkiy davr” mavzusidagi maqolalar ham foydalanildi. Tashkilot tuzilmasi, sammitlar jadvali, qarorlar hamda deklaratsiyalar asosan TDT rasmiy sayti va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy saytidagi ma'lumotlardan foydalanib to'ldirildi. Mazkur barcha adabiyotlar asosida olingan empirik-analitik ma'lumotlar, TDT sammitlarining institutsional evolyutsiyasi, iqtisodiy integratsiya dinamikasi va qiyosiy mintaqaviy tahlil natijalari bilan birlashtirilib, muallifning o'z geosiyosiy samaradorlik tahlili ishlab chiqildi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, miqdoriy tahlil va hujjatlarda mazmun-tahlili metodlarini birlashtirish yo'li bilan TDT sammitlarining geosiyosiy samaradorligi o'rganilgan. 2009–2025-yillar davridagi sammitlar xronologik taraqqiyoti, qabul qilingan qarorlar, deklaratsiyalar, bitimlar va ularning amalga oshish jarayoni tahlil qilingan. Institutsional jihatdan TDT hamda boshqa mintaqaviy tashkilotlar (YEI, ASEAN, Arab Ligasi) orasidagi tuzilma, qaror qabul qilish mexanizmlari, integratsion dinamikalar va geosiyosiy ta'sirlar qiyosiy metod orqali solishtirildi. Iqtisodiy integratsiyani o'lchash uchun O'zbekiston va boshqa TDT mamlakatlari o'rtasidagi tashqi savdo, transport-logistika hajmi, investitsiya oqimlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Hujjatlarda mazmun-tahlili esa TDT sammitlarida qabul qilingan rasmiy

hujjatlar, Deklaratsiyalar, "Turkiy dunyo nigohi-2040" strategiyasi hamda a'zo davlatlar rahbarlarining nutqlari orqali amaliy yo'nalishlar aniqlanishi uchun qo'llanildi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalariga qaraganda, TDT sammitlari 2009–2025-yillar davomida tashkilotni sifatijihatdan tubdan o'zgartirgan. Dastlabki sammitlar asosan deklarativ xarakterga ega bo'lib, umumiy maqsad va umidlarni aks ettiruvchi bayonotlar sifatida amal qilgan. Biroq 2021-yildan boshlab sammitlar amaliy bitimlar, moliyaviy mexanizmlar va loyihaviy hamkorlik bilan qo'shib, tashkilotning institutsional salohiyatini oshirishga yo'naltirildi. Istanbulda Savdo hamkorligi ilmiy-tadqiqot markazining, Samarqandda transport va bojxona bitimlarining, Bishkekda Markaziy banklar kengashining tashkil etilishi TDT sammitlarining „bayonotlar platformasi“dan „amaliy integratsion tashkilot“ga aylanishini aniq ko'rsatadi.

Iqtisodiy integratsiya bo'yicha TDT sammitlarining samarasi sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Masalan, O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2016-yilda taxminan 3,34 milliard AQSH dollari darajasidan 2024-yilga kelib 9–10 milliard dollargacha oshdi. Bu o'sish sammit qarorlarining amaliy samaradorligini qo'llab-quvvatlaydi, boshqa tomondan esa uning integratsiya siyosati natijasi, umumiy iqtisodiy o'sish, global tashqi savdo sharoiti va mintaqaviy hamkorlikning tashvishli roli bilan bog'liq ekanligini muhokama muammosiga aylantiradi.

Qiyosiy tahlil orqali TDT sammitlarining YEI, ASEAN va Arab Ligasi tajribalari bilan bog'liq o'xshashliklar hamda farqlar ham aniqlangan. TDT sammitlarining ASEAN modeliga yaqin bo'lgan „sektorlararo hamkorlik“ xususiyatlari va Arab Ligasidagi qaror qabul qilish mexanizmidagi zaifliklar bilan solishtirilib, TDT sammitlarining Turkiy Investitsiya Jamg'armasi va Markaziy banklar kengashi kabi majburiy moliyaviy institutlarni yaratish orqali geosiyosiy salohiyatini oshirganligi ta'kidlandi.

Biroq tadqiqot bir qator hal etilmagan muammolarni ham ko'rsatdi: a'zo davlatlar o'rtasidagi savdoning umumiy tashqi savdodagi ulushi hali past, mintaqada bir vaqtning o'zida Rossiya va Xitoy kabi katta geosiyosiy kuchlar bilan muzokaralar parallel ravishda davom etib, geosiyosiy muvozanatni doimiy dolzarb qiladi, hamda "TDT+" formati bilan tashkilot kengayishi qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtirish ehtimolini oshiradi. Bu muammolar TDT sammitlarini zaiflashtirmasdan, aksincha, ularga kelishmovchiliklarni muloqot orqali hal etish, umumiy manfaatlarni ziddiyatlarga ustun qo'yish va integratsiyani qog'ozdagi niyatdan amaliy harakatga aylantirish uchun yana ham zarur hamda dolzarb maydon sifatida qo'yish imkonini berdi

Asosiy qism

Turk dunyosi birligi g'oyasi XX asrning oxiridan boshlab kuchaya boshladi. Sovet Ittifoqi tarqalganidan keyin mustaqillikka erishgan turkiy davlatlar umumiy tarix, til va madaniy meros asosida yaqinlashishga intildi. 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxchivon shahrida imzolangan Naxchivon Kelishuvi asosida «Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi» (Turkiy Kengash) tashkil etildi. Ta'sischi davlatlar — Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya bo'lgan. Turkmaniston neytral maqomidan kelib chiqib, kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan.¹

Tashkilotning birinchi sammiti 2011-yil 20–21-oktabr kunlari Qozog'istonning Almati shahrida bo'lib o'tdi. Sammitning asosiy mavzusi «Iqtisodiy va savdo hamkorligi» bo'lib, unda Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston rahbarlari ishtirok etdi. Sammit yakunida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida Turkiy Ishbilarmonlar Kengashini tashkil etishga kelishib olindi.²

Ikkinchi sammit 2012-yil 22–23-avgust kunlari Qirg'izistonning Bishkek shahrida «Ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorlik» mavzusida o'tkazildi. Sammitda muhim institutsional qarorlar qabul qilindi: Qozog'istonning Astana shahrida Turkiy Akademiya, Ozarbayjonning Boku shahrida Turkiy Madaniyat va Meros Fondi tashkil etilishi to'g'risida shartnomalar imzolandi. Shuningdek, transport, kommunikatsiya hamda ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga oid bitimlar tuzildi.

¹Axunov, A. Turkiy integratsiya: yangi bosqich. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 45-bet.

²Turkiy davlatlar tashkilotining rasmiy sayti. URL: <https://www.turkicstates.org/> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

Uchinchi sammit 2013-yil 15–16-avgust kunlari Ozarbayjonning Gabala shahrida «Transport va aloqa» mavzusida bo‘lib o‘tdi. Unda a‘zo davlatlar tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida hamkorlik bayonnomasi imzolandi.

To‘rtinchi sammit 2014-yil 4–5-iyun kunlari Turkiyaning Bodrum shahrida o‘tkazildi. Sammitda «Zamonaviy Ipak yo‘li» turizm dasturi ishlab chiqishga, transport tarmog‘ini yaxshilashga hamda turizm sohasini rivojlantirishga kelishib olindi. Turkiyaga 2014–2015-yillar uchun tashkilotga raislik vakolati topshirildi.

Beshinchi sammit 2015-yil 11-sentabr kuni Qozog‘istonning Astana shahrida «Ommaviy axborot vositalari va axborot sohasidagi hamkorlik» mavzusida o‘tdi. Sammitda Turkiy Investitsiya Fondini tashkil etish, transport va Ipak yo‘li aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar muhokama qilindi.

Oltinchi sammit 2018-yil 3-sentabr kuni Qirg‘izistonning Cho‘lpon-Ota shahrida «Yoshlar va milliy sport turlari» mavzusida o‘tkazildi. Sammitda Vengriya kuzatuvchi davlat sifatida tashkilotga qabul qilindi, tashkilotning yangi Bosh kotibi etib Bog‘dod Amreyev tayinlandi (2014–2018-yillarda lavozimni Ramil Hasanov egallagan edi). Shuningdek, «Umumiy Turkiy tarix darsligi» loyihasi bo‘yicha bir qator yangiliklarga erishildi.¹

Yettinchi sammit 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjonning Boku shahrida «Kichik va o‘rta hajmli korxonalarini qo‘llab-quvvatlash» mavzusida o‘tkazildi. Aynan shu sammitda O‘zbekiston tashkilotning to‘liq huquqli a‘zosi sifatida qabul qilindi va Turkiy Kengashning 10 yilligi nishonlandi. Bu O‘zbekiston tashqi siyosatidagi muhim burilish nuqtasi sifatida baholanmoqda.

Sakkizinchi sammit 2021-yil 12-noyabr kuni Turkiyaning Istanbul shahrida «Raqamli asrda yashil texnologiyalar va aqlli shaharlar» mavzusida o‘tkazildi. Aynan shu sammit tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi: tashkilot nomi rasman «Turkiy Kengash»dan «Turkiy Davlatlar Tashkiloti» (TDT) ga o‘zgartirildi. Shuningdek, Turkmaniston kuzatuvchi a‘zo sifatida qabul qilindi, Turkiy davlatlar mustaqilligining 30 yilligi nishonlandi va «Turkiy nigoh – 2040» uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiya diplomatik aloqalarni mustahkamlash, savdo hajmini oshirish, umumiy bozor elementlarini rivojlantirish hamda axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlikni nazarda tutgan.²

To‘qqizinchi sammit 2022-yil 11-noyabr kuni O‘zbekistonning Samarqand shahrida «Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri — umumiy taraqqiyot va farovonlik sari» mavzusida o‘tkazildi. Sammit doirasida Samarqand shahri Turkiy Dunyo Sivilizatsiyasining poytaxti deb e‘lon qilindi. A‘zo va kuzatuvchi davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha Samarqand Deklaratsiyasi qabul qilindi. Bundan tashqari, transport sohasiga oid o‘ndan ortiq dastur, soddalashtirilgan bojxona yo‘laklari to‘g‘risida bitim hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan strategiya hujjatlari imzolandi. Aynan shu sammitda Turkiy Investitsiya Jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida tarixiy qaror qabul qilindi; mazkur jamg‘arma 2024-yil 24-fevralda kuchga kirdi.³

O‘ninchi sammit 2023-yil 3-noyabr kuni Qozog‘istonning Astana shahrida «Turkiy davr» shiori ostida o‘tkazildi. Sammitda Astana akti va Astana Deklaratsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan «Turkiy dunyo xartiyasi»ni ishlab chiqish, Turkiy Taraqqiyot Bankini tashkil etish va uni Toshkent shahrida joylashtirish, Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tuzish, TDT temir yo‘l idoralari kengashini ta‘sis etish hamda Turkiy ekologiya forumini tashkil qilish kabi tashabbuslar ilgari surildi. Davlatimiz rahbari ushbu sammitda «Turkiy dunyoning oliy ordeni» bilan taqdirlandi.

O‘n birinchi sammit 2024-yil 6-noyabr kuni Qirg‘izistonning Bishkek shahrida «Turkiy dunyoni rivojlantirish: iqtisodiy hamkorlik, barqaror o‘sish, raqamli kelajak va xavfsizlik» mavzusida o‘tkazildi. Sammitning eng muhim natijasi — «Turkiy Dunyo Xartiyasi»ning imzolanishi bo‘ldi. Shuningdek, «Turkiy yashil nigoh» strategik hujjati qabul qilindi, Bishkek

¹Cholpon-Ota deklaratsiyasi, 2018-yil 3-sentabr. URL: <https://www.turkicstates.org/> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

²Guliyev V. The Reinvigoration of the Organization of Turkic States amid Ongoing Geopolitical Unrest and Economic Uncertainty // *Caucasus International*. – 2024. – Vol. 14, No. 2. – P. 37–54.

³Samarqand deklaratsiyasi. Turkiy Davlatlar Tashkilotining 9-sammiti, 2022-yil 11-noyabr. URL: <https://www.turkicstates.org/> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

shahri 2025-yil uchun Turkiy Dunyoning Raqamli Poytaxti deb e'lon qilindi. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha hamkorlik bitimi va fuqarolik muhofazasi mexanizmini yaratish to'g'risida shartnomalar imzolandi. Sammitda Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban «Turkiy dunyo oliy nishoni» bilan, Nobel mukofoti sovrindori professor Aziz Sanjar esa Alisher Navoiy mukofoti bilan taqdirlandi.¹

2025-yil 21-may kuni Vengriyaning Budapesht shahrida «Sharq va G'arbning uchrashish nuqtasi» mavzusida TDTning norasmiy sammiti bo'lib o'tdi. Sammitga Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban mezbonlik qildi. Tadbirda a'zo davlatlar prezidentlari va tashkilot Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ishtirok etdilar. Sammitda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tizimli to'siqlarni bartaraf etish, biznes uchun qulay muhit yaratish va o'zaro savdo hajmini oshirishga qaratilgan TDT yo'l xaritasi tasdiqlandi.

TDTning navbatdagi 12-sammiti 2025-yil 7-oktabr kuni Ozarbayjonning Gabala shahrida «Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik» mavzusida o'tkazildi. Sammitda Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev raisligida Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart To'qayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Prezidenti Rajab Tayyib Erdog'an, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban va boshqa rasmiy shaxslar ishtirok etdilar. Sammitda «TDT+» formati e'lon qilindi — bu boshqa davlatlarga tashkilot a'zosi bo'lmasdan ham hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.²

Bugungi kunda TDT doirasida 35 dan ortiq yo'nalishda amaliy hamkorlik amalga oshirilmoqda. A'zo davlatlar o'rtasidagi savdo hajmi barqaror oshib bormoqda va 2030-yilga borib ikki barobarga ko'payishi kutilmoqda. Gabala sammitida O'zbekiston tomonidan Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi bitimni qabul qilish, TDTni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish takliflari ilgari surildi.³

Bugungi kunda Turkiy Davlatlar Tashkilotini O'zbekistonsiz tasavvur qilish qiyin. Biroq tarixiy nuqta nazardan qaraganda, vaziyat har doim ham shunday bo'lmagan. O'zbekiston 2019-yilgacha tashkilot tarkibida bo'lmagan. Mutaxassislarning fikricha, bu davrda O'zbekiston va Turkiya munosabatlarida ayrim ziddiyatli masalalar mavjud bo'lgan. 2016-yildan keyin O'zbekistondagi siyosiy o'zgarishlar mamlakat uchun xalqaro tuzilmalarda faolroq ishtirok etish imkoniyatlarini ochib berdi.

2019-yildan boshlab O'zbekiston TDT doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 60 dan ortiq muhim tashabbusni ilgari surdi va tashkilotning eng faol a'zolaridan biriga aylandi. So'nggi sakkiz yil mobaynida O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan tovar aylanmasi ikki barobarga oshdi: 2017-yildagi 4,1 milliard dollardan 2024-yilda 9,5 milliard dollarga yetdi.

O'zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo yo'nalishi va TDT formatidagi ishtiroki bir-birini to'ldiruvchi vositalardir: birinchisi mintaqaviy integratsiyani kuchaytirsa, ikkinchisi sheriklik geografiyasini kengaytiradi. Boshqacha aytganda, Toshkent uchun TDT — mintaqaviy ta'sirini kengaytirish va turli geosiyosiy kuchlar o'rtasida muvozanat saqlashning samarali vositalaridan biridir.

O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 16 banddan iborat TDT sanoat kooperatsiyasi dasturi kimyo, energetika, farmatsevtika, oziq-ovqat, yengil sanoat va tog'-kon sanoati sohalarida qo'shma ishlab chiqarishlarni yaratishni nazarda tutadi. Budapesht sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev Ukrainadagi urush va Falastin mojarosiga to'xtalib, dolzarb xalqaro muammolar yechimi bo'yicha umumiy yondashuv va pozitsiyalarni kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

¹Bishkek deklaratsiyasi. Turkiy Davlatlar Tashkilotining 11-sammiti, 2024-yil 6-noyabr. URL: <https://www.turkicstates.org/> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

²Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlik o'zaro ishonchni mustahkamlamoqda // Yangi O'zbekiston. – 2025. – №206 (1532). – 2-bet.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Gabala sammitidagi nutqi, 2025-yil 7-oktabr. URL: <https://president.uz/> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

Xulosa

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, Turkiy Davlatlar Tashkiloti 2009-yildagi Naxchivon Kelishuvidan boshlab izchil rivojlanib, 2021-yilda institutsional jihatdan to'liq shakllangan mintaqaviy tashkilotga aylandi. Tashkilotning evolyutsiyasi bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lib, har bir sammit yangi institut, hujjat yoki strategik yo'nalishni shakllantirish bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqi tajribasi bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy integratsiya uzoq muddatli jarayon bo'lib, u dastlabki iqtisodiy hamkorlikdan boshlanib, asta-sekin chuqurroq siyosiy va institutsional integratsiyaga olib keladi. TDT hozirda mazkur yo'lning erta bosqichida bo'lsa-da, uning rivojlanish dinamikasi istiqbolli.

Uchinchidan, O'zbekistonning 2019-yilda TDTga to'liq huquqli a'zo bo'lib kirishi tashkilot rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston rahbarining tashkilotga istiqbolli loyihalarni olib kirishi — Turkiy Investitsiya Jamg'armasi, Turkiy Taraqqiyot Banki, sanoat kooperatsiyasi dasturi va boshqalar — TDTni yangi sifat bosqichiga ko'tarmoqda. Buning yorqin dalili sifatida tashkilot doirasidagi savdo aylanmasining ikki barobardan ko'proqqa o'sib, 9,5 milliard dollarni tashkil etganligini keltirish mumkin.

To'rtinchidan, TDTning kelajakdagi rivojlanishi a'zo davlatlarning umumiy strategik manfaatlarini muvozanatda saqlay olishi, transport-logistika va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi loyihalarni amaliyotga joriy qilishi hamda «Turkiy nigoh – 2040» strategiyasidagi maqsadlarni izchil amalga oshirishi bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axunov A. *Turkiy integratsiya: yangi bosqich*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 200 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020. – 320 b.
3. *Naxchivon Kelishuvi: Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma, 2009-yil 3-oktabr*.
4. *Samarqand Deklaratsiyasi. Turkiy Davlatlar Tashkilotining 9-sammiti, 2022-yil 11-noyabr*.
5. *Astana Deklaratsiyasi. Turkiy Davlatlar Tashkilotining 10-sammiti, 2023-yil 3-noyabr*.
6. *Bishkek Deklaratsiyasi va Turkiy Dunyo Xartiyasi. Turkiy Davlatlar Tashkilotining 11-sammiti, 2024-yil 6-noyabr*.
7. *Turkiy nigoh – 2040: Turkiy Davlatlar Tashkilotining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, 2021*.
8. Guliyev V. *The Reinvigoration of the Organization of Turkic States amid Ongoing Geopolitical Unrest and Economic Uncertainty // Caucasus International*. – 2024. – Vol. 14, No. 2. – P. 37–54.
9. Kirişçi K., Toygür İ. *Turkey's New Presidential System and a Changing West*. – Brookings Institution, 2019. – 28 p.
10. Kazantsev A., Medvedeva S., Safranchuk I. *Between Russia and China: Central Asia in Greater Eurasia // Journal of Eurasian Studies*. – 2021. – Vol. 12, No. 1. – P. 57–71.
11. *Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlik o'zaro ishonchni mustahkamlamoqda // Yangi O'zbekiston*. – 2025. – №206 (1532). – 2-bet.
12. *Turkiy davr: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari yo'l // Yangi O'zbekiston*. – 2025. – №241 (1030). – 3-bet.
13. *Turkiy Davlatlar Tashkilotining rasmiy sayti*. URL: <https://www.turkicstates.org/> (murojaat sanasi: 15.04.2026).
14. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti*. URL: <https://president.uz/> (murojaat sanasi: 15.04.2026).